

“O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-390-sonli Qarori qabul qilindi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrdagi “**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-390-sonli Qarori** qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, mamlakatimizda ilm-fanni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, fundamental va amaliy tadqiqotlar sifatini oshirish, oliy ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlash hamda Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida:

- yangi ilmiy ishlanmalar soni va tijoratlashtirishdan olinadigan mablag‘lar hajmini **3 baravarga**;
- ilmiy xodimlar tarkibida yoshlar ulushini **60 foizgacha** oshiriladi;
- xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy diasporani O‘zbekiston ilm-faniga reintegratsiya qilinadi;
- yoshlarning akademik fanlarda ishtirokini kuchaytirish uchun ularni rag‘batlantirish tizimini yaratiladi.

Shuningdek, ilm-fan va sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyani kuchaytirish, Fanlar akademiyasining yangi ishlanmalarini tijoratlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida yuridik shaxs makomiga ega bo‘lmagan **Fan va sanoat integratsiyasi kengashi** tashkil etiladi.

2026-yildan boshlab ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi barcha ilmiy loyihalarning sifatini oshirish maqsadida ularni ilmiy ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha ilmiy-texnik kengashlar tarkibiga Fanlar akademiyasi taklifiga asosan hamrais nomzodi kiritiladi.

Bundan tashqari, **2026-yil 1-apreldan** Fanlar akademiyasi o‘z tizimidagi ilmiy muassasalarda xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda ilmiy xodimlar faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) va ilmiy muassasalar faoliyat samaradorligini baholash bo‘yicha reyting tizimini joriy etadi.

2026-yil 1-yanvardan ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, yosh olimlarni jalb qilish va strategik ahamiyatga ega ilmiy yo‘nalishlarni barqaror moliyalashtirish maqsadida Fanlar akademiyasi jamg‘armasi tashkil etiladi.

Shuningdek, Qarorga ko‘ra:

- Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Ilg‘or texnologiyalar markazi** hamda Innovatsion rivojlanish agentligining **Xalqaro molekulyar allergologiya markazini Fanlar akademiyasi tizimiga** o‘tkazish;
- hududlarda ilm-fanni rivojlantirish va yoshlarni ilm-fanga kengroq jalb qilish maqsadida Namangan, Samarqand va Termiz shaharlarida Fanlar akademiyasining hududiy bo‘limlarini tashkil etish;
- Xalqaro ilm-fan kengashining Markaziy Osiyo mintaqaviy ofisini tashkil etish;
- Fanlar akademiyasi huzuridagi Milliy arxeologiya markazini **Antropologiya instituti** deb qayta nomlash belgilandi.

Mazkur qaror O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab beradi. U Fanlar akademiyasi faoliyatini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish va ularning amaliy natijadorligini kuchaytirishga qaratilgan. Yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy diasporani jalb etish, ilm-fan va sanoat integratsiyasini mustahkamlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali milliy ilm-fanning raqobatbardoshligi oshiriladi. Qaror natijasida ilm-fan iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotining muhim drayveriga aylanishi uchun zarur tashkiliy, moliyaviy va institutsional sharoitlar yaratiladi.